Key words: biology education, educational assessment, pedagogical qualimetry, testology, psychometrics, Classical Test Theory (CTT), Item Response Theory (IRT), Rasch model, biological competence, validity, reliability, test item.



Аннотация: В статье анализируются теоретические и методологические основы совершенствования системы оценивания знаний, практических умений и компетенций учащихся в процессе обучения биологии. Цель исследования заключается в интеграции педагогической квалиметрии, классической теории тестов и современных психометрических подходов, в частности модели Раша, в единую систему оценивания с учетом содержательных и когнитивных особенностей биологии как учебного предмета. В исследовании использованы методы анализа научно-методической литературы, сравнительного и тестологического анализа, а также психометрические подходы. Результаты анализа свидетельствуют о наличии в практике оценивания по биологии проблем, связанных с содержательной репрезентативностью заданий, их когнитивной сложностью, дискриминативными характеристиками, эффективностью дистракторов и интерпретацией результатов измерения.

В статье предложена многоэтапная квалиметрическо-психометрическая модель оценивания, ориентированная на диагностику биологических компетенций учащихся. Данная модель включает определение конструкта оценивания, разработку спецификации теста, проектирование заданий на основе таксономии Блума, экспертное оценивание, проведение пилотного тестирования, первичный анализ на основе классической теории тестов, психометрическую калибровку с использованием модели Раша и диагностическую интерпретацию полученных результатов. Предложенный подход позволяет рассматривать оценивание по биологии не только как средство определения количества правильных ответов, но и как систему валидной и надежной диагностики биологических компетенций учащихся.

Ключевые слова: биологическое образование, педагогическое оценивание, педагогическая квалиметрия, тестология, психометрия, классическая теория тестов, теория ответов на задания (Item Response Theory, IRT), модель Раша, биологическая компетентность, валидность, надежность, тестовое задание.

KIRISH

Ta'lim sifatini ta'minlash masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq ta'lim sifatini baholash faqat o'quvchining ma'lum miqdordagi savollarga to'g'ri javob berishini aniqlash bilan cheklanmaydi. Ayniqsa, biologiya kabi murakkab va ko'p komponentli o'quv fanida o'quv natijasini baholash biologik tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmunini tushunish, biologik qonuniyatlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash, tajriba natijalarini tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va muammoli biologik vaziyatlarga yechim topish kabi turli darajadagi faoliyatlarni qamrab olishi lozim.

Biologiya fanining mazmuni o'ziga xos xususiyatga ega. Unda hujayra va molekula darajasidagi jarayonlardan tortib organizm, populyatsiya, ekotizim va biosfera darajasigacha bo'lgan hodisalar o'rganiladi. O'quvchi biologik obyekt va jarayonlarni nafaqat tavsiflashi, balki ular o'rtaidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashi, jadval, grafik va sxemalarni tahlil qilishi, tajriba ma'lumotlarini interpretatsiya qilishi hamda ilmiy dalillarga asoslangan qaror qabul qilishi talab etiladi.

Xalqaro baholash tizimlarida ham tabiiy-ilmiy ta'lim natijalarini baholash mazmuni tobora kompetensiyaviy xarakter kasb etmoqda. Masalan, PISA 2025 fanlar bo'yicha konseptual asosida tabiiy-ilmiy ta'lim natijalari hodisalarini ilmiy jihatdan tushuntirish, ilmiy tadqiqotni loyihalash va baholash hamda ilmiy ma'lumot va dalillarni tanqidiy talqin qilish bilan bog'liq kompetensiyalar orqali tavsiflanadi. Shuningdek, ilmiy axborotni izlash, baholash va undan qaror qabul qilishda foydalanish ham muhim yo'nalish sifatida ajratilgan.

Bu holat biologiya ta'limidagi baholash tizimini ham qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Agar baholash vositasi asosan faktologik bilimlarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, u o'quvchining haqiqiy biologik kompetensiyasi haqida to'liq tasavvur bera olmaydi. Shu sababli baholash mazmuni, topshiriq shakli, kognitiv darajasi va o'lchash sifati o'zaro uyg'un tizim sifatida qaralishi zarur.

Biologiya ta'limi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda ham aynan shu muammo dolzarb ekanligi qayd etilmoqda. Biologik tushunchalarni baholash vositalarini ishlab chiqish va validatsiya qilishda klassik test nazariyasi bilan bir qatorda Rasch tahlili va boshqa zamonaviy psixometrik yondashuvlarning qo'llanilishi kengayib bormoqda. Biroq mavjud biologiya baholash instrumentlarining ayrimlari muayyan ta'lim muhiti yoki cheklangan tanlanmaga asoslanganligi sababli, natijalarni kengroq kontekstda umumlashtirish masalasi murakkabligicha qolmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy ilmiy muammosi shundan iboratki, biologiya fanidan o'quvchilar bilimni baholash amaliyotida ko'pincha yakuniy ball asosiy natija sifatida qabul qilinadi, biroq ushbu ballning qanday konstruktini o'lchashi, topshiriqlarning mazmunini jihatdan qanchalik reprezentativligi, ularning psixometrik sifati va olingan natijalardan qanday pedagogik xulosalar chiqarish mumkinligi har doim ham yetarli darajada asoslanmaydi.

Shu nuqtayi nazardan tadqiqotning maqsadi biologiya ta'limida o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini baholashning mavjud nazariy va amaliy yondashuvlarini tahlil qilish hamda pedagogik kvalimetriya, klassik test nazariyasi va Rash modelini integratsiyalashtirish holda biologiya fanidan baholashning takomillashtirilgan modelini ishlab chiqishdan iborat.



Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- biologiya ta'limida baholashning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;
- biologik kompetensiyalarni baholashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- klassik test nazariyasi va zamonaviy psixometrik yondashuvlarning imkoniyatlarini qiyoslash;
- biologiya faniga oid topshiriqlarning sifatini baholash mezonlarini aniqlash;
- biologiya ta'limi uchun kvalimetrik-psixometrik baholash modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi biologiya fanidan baholashni alohida test topshirig'i yoki yakuniy ball bilan cheklangan jarayon sifatida emas, balki biologik kompetensiyalarni aniqlash → topshiriqlarni loyihalash → kvalimetrik ekspertiza → empirik sinov → CTT tahlili → Rash kalibrlashi → diagnostik interpretatsiya → teskari aloqa ketma-ketligida tashkil etiladigan integratsiyalashgan tizim sifatida asoslash bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik baholash nazariyasida muhim metodologik o'zgarishlardan biri validlik tushunchasining testning alohida xususiyati sifatidagi tor talqinidan baholash natijalariga asoslangan xulosalarning asoslanganligi sifatidagi kengroq yondashuvga o'tishdir.

Zamonaviy validlik nazariyasida testning o'zi "valid" yoki "invalid" deb baholanmaydi. Asosiy masala test natijalaridan chiqarilayotgan xulosa va qabul qilinayotgan qarorlarning ilmiy dalillar bilan qay darajada asoslanishidir. Biologiya ta'limi sohasidagi tadqiqotlarda ham validlik dalillari mazmun, javob jarayoni, ichki tuzilma va boshqa omillar bilan bog'liq holda ko'rib chiqilishi ta'kidlanadi.

Mazkur yondashuv biologiya fanidan baholash uchun ayniqsa muhimdir. Chunki, masalan, genetik masalani to'g'ri yechgan o'quvchi haqiqatan ham genetik qonuniyatlarni tushunganligi yoki faqat ma'lum algoritmi yodlab olganligi o'rtasida farq mavjud. Demak, faqat yakuniy javobning to'g'riligini aniqlash har doim ham baholash konstruktini to'liq ochib bermaydi.

Shunday qilib, biologiya fanidan validlikni ta'minlash kamida uch savolga javob berishni talab qiladi:

1. Topshiriq biologik mazmunni to'g'ri va yetarli darajada aks ettiradimi?
2. O'quvchi topshiriqni bajarishda aynan o'lchanishi kerak bo'lgan biologik bilim yoki ko'nikmadan foydalanadimi?
3. Olingan natijadan chiqarilgan pedagogik xulosa asoslimi?

Biologiya ta'limi bo'yicha integrativ tadqiqotlar biologik bilimlarni alohida faktlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan konseptual tizim sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli biologik ta'lim natijalarini baholashda faqat termin va ta'riflarni eslab qolishga asoslangan topshiriqlar yetarli emas.

So'nggi sistematik sharhlarda biologiya ta'limidagi baholash tadqiqotlarida formativ baholash, texnologiyalardan foydalanish, tanqidiy fikrlash va ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini baholashga e'tibor ortib borayotgani qayd etiladi. Shu bilan birga, biologik tushunchalarning murakkabligi hamda texnologik vositalarni baholash jarayoniga integratsiya qilish muammosi saqlanib qolmoqda.

Bu holat biologiya fanidan baholashning ikki darajasini birlashtirish zarurligini ko'rsatadi:

Birinchi daraja – baholash nimani o'lchashi kerakligi, ya'ni biologik konstruktini aniqlash.

Ikkinchi daraja esa – ushbu konstrukt qanchalik sifatli o'lchanayotganligi, ya'ni psixometrik sifatni aniqlashdir.

Mazkur ikki daraja o'zaro bog'liq bo'lmasa, ikki xil muammo yuzaga keladi. Mazmunan mukammal tuzilgan topshiriq psixometrik jihatdan samarasiz bo'lishi mumkin. Aksincha, statistik ko'rsatkichlari yaxshi bo'lgan topshiriq biologiya fanining muhim kompetensiyasini yetarli darajada aks ettirmasligi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Klassik test nazariyasi va Rasch modelining biologiya ta'limidagi o'rni

Test topshiriqlarini tahlil qilishda klassik test nazariyasi uzoq yillar davomida asosiy metodologik vosita bo'lib kelgan. Ushbu yondashuv testning umumiy ishonchligini, topshiriq qiyinligini, diskriminatsion xususiyatini va topshiriq bilan umumiy test natijasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

CTTning asosiy afzalligi uning nisbatan sodda va amaliyotda qulay ekanligidir. Masalan, test topshirig'ining qiyinlik indeksi orqali savolga to'g'ri javob bergan o'quvchilar ulushi aniqlanadi. Diskriminatsion ko'rsatkich esa yuqori va past natijali o'quvchilarni topshiriq qanchalik farqlay olishini ko'rsatadi.



Biroq klassik test nazariyasining muhim cheklovlaridan biri shundaki, topshiriq parametrlarining qiymati ma'lum darajada aynan shu topshiriqni bajargan tanlanmaga bog'liq bo'ladi. Shu sababli bir xil topshiriq turli qobiliyat tarkibiga ega guruhlarda turlicha statistik tavsifga ega bo'lishi mumkin.

Zamonaviy test nazariyasi, jumladan, Item Response Theory ushbu muammoni yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Rasch modeli shaxs qobiliyati va topshiriq qiyinligini umumiy logit shkalasida ifodalashga asoslanadi.

Rasch modelida asosiy savol:

Ma'lum qobiliyat darajasiga ega o'quvchining ma'lum qiyinlik darajasidagi topshiriqni to'g'ri bajarish ehtimoli qanday?

Bu yondashuv biologiya fanidagi topshiriqlarni faqat "oson" yoki "qiyin" deb tavsiflashdan ko'ra, ularni o'quvchilar qobiliyati bilan bir shkalada joylashtirish imkonini beradi.

Rasch tahlilining instrument ishlab chiqishdagi imkoniyatlari, xususan, konstruktni aniq belgilash, topshiriqlar sifatini monitoring qilish, o'lchash vositasini takomillashtirish va alternativ test shakllarini yaratishdagi ahamiyati ta'kidlangan.

Biologiya faniga oid empirik tadqiqotlarda ham CTT va Rasch modelining birgalikda qo'llanishi test topshiriqlari sifatini yanada kengroq baholash imkonini berishi ko'rsatilgan. Ayrim tadqiqotlarda aynan biologiya fanidan tuzilgan test topshiriqlari qiyinlik, diskriminatsiya, distraktorlar samaradorligi, validlik va ishonchlilik ko'rsatkichlari bo'yicha klassik va Rasch yondashuvlari asosida taqqoslangan.

Demak, CTT va Rasch modelini bir-biriga qarama-qarshi metodlar sifatida emas, balki turli darajadagi diagnostik ma'lumot beruvchi o'zaro to'ldiruvchi yondashuvlar sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur maqola nazariy-metodologik va konseptual tadqiqot xarakteriga ega. Tadqiqotda:

- ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- qiyosiy tahlil;
- biologik kompetensiyalarni mazmuniy modelashtirish;
- testologik tahlil;
- ekspert baholash tamoyillarini konseptual asoslash;
- psixometrik tahlilning nazariy asoslarini umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Maqolada keltiriladigan sonli misollar, agar alohida real empirik ma'lumot bilan ko'rsatilmagan bo'lsa, gipotetik misol yoki taklif etilayotgan baholash modeli sifatida talqin qilinadi. Ular haqiqiy eksperimental tadqiqot natijasi sifatida taqdim etilmaydi.

Taklif etilayotgan modelda biologik ta'lim natijasi yagona "bilim" ko'rsatkichi bilan cheklanmaydi. U quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy va metodologik tahlil biologiya fanidan baholashda quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

1. Faktologik bilimlarning ustunligi

Ko'plab testlarda "qaysi?", "nima?", "kim?" kabi eslab qolishga asoslangan topshiriqlar ustunlik qilishi mumkin. Bunday topshiriqlar ma'lum biologik bilimlarni aniqlash uchun zarur, biroq ular o'quvchining biologik jarayonlarni tahlil qilish yoki ilmiy dalillar asosida xulosa chiqarish qobiliyatini to'liq baholamaydi.

2. Kognitiv darajalar o'rtasidagi nomutanosiblik

Baholash spetsifikatsiyasida Bloom taksonomiyasining yuqori darajalari yetarli darajada aks etmasa, test yuqori ball olgan o'quvchi bilan murakkab biologik muammoni mustaqil hal qila oladigan o'quvchini farqlashda cheklangan bo'ladi.

3. Mazmuniy validlikning yetarli asoslanmasligi

Biologiya fani keng mazmunli bo'lgani sababli 30 yoki 40 ta topshiriq butun fan mazmunini teng darajada qamrab olmaydi. Shu sababli test topshiriqlari oldindan ishlab chiqilgan spetsifikatsiyaga asoslanishi lozim.

Biologiya bo'yicha yirik baholash instrumentlarini ishlab chiqish tadqiqotlarida ham mazmunni ekspertlar tomonidan aniqlangan asosiy biologik konsepsiyalar bilan bog'lash va topshiriqlarni mutaxassislar ekspertizasidan o'tkazish validlik dalillarini shakllantirishning muhim qismi sifatida ko'riladi.



4. Distraktorlarning samarasizligi

Ko'p variantli testda noto'g'ri javob variantlari tasodifiy yoki biologik jihatdan mutlaqo asossiz tuzilsa, yuqori va past qobiliyatli o'quvchilarni farqlash imkoniyati kamayadi.

Samarali distraktor noto'g'ri tushuncha yoki tipik xatoni aks ettirishi kerak. Masalan, genetika bo'yicha topshiriqda noto'g'ri variantlar o'quvchilarning dominantlik, segregatsiya yoki mustaqil kombinatsiyalanish qonuniyatlarini noto'g'ri qo'llashi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Biologiyaga oid namunaviy topshiriq

No'xat o'simligida urug' rangi bo'yicha sariq belgi yashil belgiga nisbatan dominant. Geterozigot sariq urug'li o'simliklar o'zaro chatishtirilganda 160 ta avlod olindi.

Savol: Nazariy jihatdan yashil urug'li o'simliklarning kutilayotgan sonini aniqlang.

- A) 40
- B) 80
- C) 120
- D) 160

Bu topshiriqning biologik mazmuni oddiy dominantlik va Mendel qonuniyatlari bilan bog'liq. Biroq uni faqat to'g'ri javob asosida baholash cheklangan ma'lumot beradi.

Topshiriq quyidagi diagnostik imkoniyatlarga ega:

A varianti – 3:1 nisbatini to'g'ri qo'llagan o'quvchi;

B varianti – dominant va retsessiv belgilarni teng nisbatda deb hisoblash bilan bog'liq ehtimoliy noto'g'ri tushuncha;

C varianti – dominant fenotip ulushini noto'g'ri tanlash;

D varianti – barcha avlodlarda dominantlik kuzatiladi, degan xato tasavvur.

Shunday qilib, distraktorlar faqat "noto'g'ri javoblar" emas, balki o'quvchilarning noto'g'ri konseptual tasavvurlarini diagnostika qilish vositasi sifatida ishlab chiqilishi mumkin.

Maqolaning asosiy ilmiy taklifi biologiya fanidan baholashning quyidagi integratsiyalashgan modelidir.

I-bosqich. Baholash konstruktini aniqlash

Avvalo "o'quvchi nimani bilishi kerak?" degan savol emas, balki:

"O'quvchi biologik bilimlardan foydalangan holda nimalarni bajara olishi kerak?" degan savol asosiy metodologik nuqtaga aylantiriladi.

II-bosqich. Baholash spetsifikatsiyasini ishlab chiqish

Har bir topshiriq quyidagi koordinatalar bo'yicha joylashtiriladi:

Biologik mazmun → Kompetensiya → Kognitiv daraja → Topshiriq formati

Masalan:

Genetika → Muammoni yechish → Qo'llash → Ochiq yoki ko'p variantli topshiriq

III-bosqich. Mazmuniy ekspertiza

Biologiya mutaxassislari va metodistlar topshiriqlarni quyidagi mezonlar asosida baholaydilar:

- biologik jihatdan to'g'riligi;
- o'quv dasturiga mosligi;
- kompetensiyani aks ettirishi;
- kognitiv darajaning mosligi;
- til va ifodaning aniqligi;
- konstruktga aloqador bo'lmagan omillarning mavjud emasligi.

IV-bosqich. Pilot sinov

Topshiriqlar o'quvchilar guruhida sinovdan o'tkaziladi va dastlabki empirik ma'lumotlar olinadi.

V-bosqich. Klassik test nazariyasi asosida tahlil

Bu bosqichda:

- testning umumiy ishonchliligi;
- topshiriq qiyinligi;



- diskriminatsiya;
- item-total correlation;
- distraktorlarning ishlashi tahlil qilinadi.

VI-bosqich. Rash modeli asosida kalibrlash

Rash tahlili yordamida:

- person ability – o'quvchi qobiliyati;
- item difficulty – topshiriq qiyinligi;
- logit shkalasi;
- infit va outfit statistikasi;
- item-person map (Rayt xaritasi);
- test targeting;
- unidimensionality;
- local independence tahlil qilinadi.

Bu bosqichning asosiy afzalligi shundaki, o'quvchi qobiliyati va topshiriq qiyinligi bir xil metrik shkalada taqqoslanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biologiya fanidan baholashning asosiy muammosi o'quvchi tomonidan to'plangan ball miqdorini aniqlash bilan biologik kompetensiyalarni haqiqiy o'lchash o'rtasidagi metodologik tafovutda namoyon bo'ladi. Yuqori test natijasi har doim ham biologik hodisalarni tahlil qilish, ilmiy dalillarni baholash yoki yangi biologik vaziyatlarda bilimlarni qo'llash qobiliyatini to'liq ifodalayvermaydi.

Tadqiqotning nazariy tahlili biologiya fanidan baholashni takomillashtirish uchun mazmuniy, kvalimetrik va psixometrik yondashuvlarni yagona tizimga birlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu asosda quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- biologiya fanidan baholash spetsifikatsiyasi mazmun $\times$ kompetensiya $\times$ kognitiv daraja modeli asosida ishlab chiqilishi;
- topshiriqlar Bloom taksonomiyasining barcha tegishli darajalarini muvozanatli qamrab olishi;
- har bir test topshirig'i biologik mazmuni va psixometrik sifati bo'yicha alohida ekspertizadan o'tkazilishi;
- testning dastlabki sifat nazorati CTT ko'rsatkichlari asosida amalga oshirilishi;
- yuqori sifatli baholash instrumentlarini shakllantirishda Rasch modeli yordamida topshiriqlar kalibrlanishi;
- o'quvchi natijalari faqat umumiy ball sifatida emas, balki biologik kompetensiyalar profili sifatida interpretatsiya qilinishi;
- psixometrik tahlildan o'tgan topshiriqlar asosida biologiya fanidan doimiy yangilanib boradigan topshiriqlar banki shakllantirilishi lozim.

Taklif etilgan kvalimetrik-psixometrik model biologiya ta'limida baholashni "natijani qayd etish" jarayonidan "o'quvchining biologik rivojlanishini diagnostika qilish va ta'lim jarayonini boshqarish" vositasiga aylantirish imkonini beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu modelni umumiy o'rta ta'lim maktablarida real empirik ma'lumotlar asosida sinovdan o'tkazish, turli biologiya bo'limlari uchun topshiriqlar bankini shakllantirish, Rasch modeli yordamida topshiriqlarni kalibrlash hamda parallel test shakllarini umumiy topshiriqlar asosida bog'lash istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. American Educational Research Association, American Psychological Association, & National Council on Measurement in Education. (2014). Standards for educational and psychological testing. American Educational Research Association.
2. Campbell, C. E., & Nehm, R. H. (2013). A critical analysis of assessment quality in genomics and evolution education research. *CBE—Life Sciences Education*, 12(1), 92–105.



3. Cary, T., & Branchaw, J. (2017). The BioCore Guide: A tool for interpreting the core concepts of Vision and Change for biology majors. *CBE–Life Sciences Education*, 16(1), ar7.
4. Crocker, L., & Algina, J. (1986). Introduction to classical and modern test theory. Holt, Rinehart and Winston.
5. Herman, J. L., & Linn, R. L. (2013). On the road to assessing deeper learning: The status of Smarter Balanced and PARCC assessment consortia. *CBE–Life Sciences Education*, 12(4), 517–524.
6. Kane, M. T. (2013). Validating the interpretations and uses of test scores. *Journal of Educational Measurement*, 50(1), 1–73.
7. Messick, S. (1995). Validity of psychological assessment: Validation of inferences from persons' responses and performances as scientific inquiry into score meaning. *American Psychologist*, 50(9), 741–749.
8. OECD. (2023). PISA 2025 Science Framework. OECD.
9. Priyani, T., & Sugiharto, B. (2024). Analysis of biology midterm exam items using a comparison of the classical theory test and the Rasch model. *Jurnal Pendidikan Biologi Indonesia*, 10(3). <https://doi.org/10.22219/jpbi.v10i3.34345>
10. Rahmi, S. N., Megawati, Alberida, H., & Fadilah, M. (2025). Assessment of biology learning outcomes in education: A systematic literature review. *Biosfer: Jurnal Pendidikan Biologi*. <https://doi.org/10.21009/biosferjpb.47179>
11. Reeves, T. D., & Marbach-Ad, G. (2016). Contemporary test validity in theory and practice: A primer for discipline-based education researchers. *CBE–Life Sciences Education*, 15(1), rm1.
12. Rasch, G. (1960). Probabilistic models for some intelligence and attainment tests. Danish Institute for Educational Research.
13. Shi, J., Wood, W. B., Martin, J. M., Guild, N. A., Vicens, Q., & Knight, J. K. (2010). A diagnostic assessment for introductory molecular and cell biology. *CBE–Life Sciences Education*, 9(4), 453–461.
14. Wilson, M., & Scalise, K. (2016). Assessment to improve learning in higher education: The BEAR Assessment System. *Higher Education*, 72, 1–17.
15. Kartikasari, R., & Sugiharto, B. (2026). Analysis of biology multiple-choice questions using classical test theory and Rasch model. *Edubiotik: Jurnal Pendidikan, Biologi dan Terapan*, 11(1). <https://doi.org/10.33503/ebio.v11i01.1816>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.